



FORISHNING TARIXIY JOYLARI HAQIDA

MIRKOMILOV. B .prof, J.D.P.U

BOYMATOV.SH.S. Magistr, J.D.P.U

KALIT SO'ZLAR: Forish, Xonbahdi, Xonbandi to'g'oni, Pasttog', Qiz uchgon, Qishloqlar, Oq qoya, Qoyatosh, Oq buloq, Ko'k buloq,

КЛЮЧЕВОЙ СЛОВО: Фориш, ханбанди, дамба хонбанди, пасттог, кыз учгон, деревни, белая скала, катранджи, белый источник, голубой источник,

KEY WORDS: Forish, Khanbahdi, Khanbandi dam, Pasttog, Kyz uchgon, Villages, White rock, Katrangyi, White spring, Blue spring,

Xonbandi tarixidan. O'zbekiston tarixan o'zining geografik o'rni, iqlimi va sharoiti bilan qadimdan dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan mintaqalardan biri hisoblanadi. Forish ham shu mintaqaning bir qismi sifatida o'zining katta ahamiyatiga ega. Uning sun'iy sug'orish tarixi olis o'tmishga borib taqaladi, ya'ni yerlarni o'zlashtirish va sun'iy sug'orish tajribasi kuni kecha hayotimizga kirib kelgan yangilik emas, balki uning negizlari insoniyat tarixining uzoq o'tmishiga borib taqaladi. O'tgan asrning ko'zga ko'ringan olimlari V.V Bartold , V. I Masalskiy, D.D Bukinin, B.V Andriyanov, B.A Latinin, Ya. G' G'ulomov, S.P.Tolstov, A.M Muhammadjonov va boshqa yana bir qator tarixchilarning asarlarida qimmatli ilmiy fikrlar aytib o'tilgan. Arxeologik qazishmalar O'zbekistonning tog' etaklarida, daryo va soy bo'ylarida sug'oriladiga maydonlar vujudga kelganligini tasdiqladi.⁴

Manbalardan shu narsa ma'lumki, tabiat inijliklari, kutilmagan tabiiy ofatlar bashariyatning ijtimoiy hayotiga nafaqat zarar keltirgan, balki uning foydasiga ham ishlagan hollari ham ko'p bo'lgan. Chunonchi, suv toshqinlari oqibatida su'niy sug'orish tajribasi

⁴ Rol vodnoy melioratsii v razbitim zemledeliya O'zbekistana. O'zb. AKSI. T.; "O'zbekiston", 1992-god, 48 str.



vujudga kelgan. Ammo damlar daryo va soylarga band solib, suv sathidan bir necha karra baland bo'lgan yerlarga ham suv chiqarish mumkinligini anglab yetgunlariga qadar ko'p zamonlarni, talay tabiiy ofatlarni boshdan kechirishlariga to'g'ri kelgan.

O'rta Osiyoda qadim zamonlardan yuksak mahoratli miroblar faoliyat olib borishgan. Shuning uchun rus olimi V.I Masalskiy 1913-yilda yozgan "Turkiston o'lkasi" nomli monografiyasida shunday yozgan edi: "Necha o'nlab chaqirim joylarga obi hayot eltayotgan ana shu kuchli oqimlarni ko'rар ekansan, texnikadan juda oz xabardor bo'lgan xalq jazirama quyosh ostida zo'r mehnat evaziga butun mamlakatni ariq va kanallar (bandlar) tarmog'i bilan burkaganligi uchun ham bu xalqqa alohida hurmat bilan qaraysan kishi"⁵

Tarixda o'tgan fotih va jahongirlarning hammasi ham faqat vayronagarchilik keltirmaganlar. Ushbu satrlar fikrimizni to'la tasdiqlaydi. Samarqandda yashab o'tgan rus olimi Anderenkov G.A qadimda Zarafshon suvi bilan Qarshi dashtidagi yerlar sug'orilganligi haqida tarixiy haqiqatni tiklashga mufaffaq bo'ldi. Uning fikricha qadim zamonlardayoq Zarafshon daryosidan Qarshi cho'liga 300 verst uzunlikda Manas kanali tortilgan ekan. Kanal yer osti yo'li orqali o'tgan bo'lib, yer osti uzunligi 1200 metr, kengligi 5 metr, chuqurligi 4 metrni tashkil etgan. ⁶

O'rta asrlarda O'rta Osiyo davlatlarida yuksak darsjada rivojlangan me'morchilik va qurilish san'ati o'sha davrning suv xo'jaligi inshootlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Sifatli pishiq g'isht hamda elastic qorishma yordamida gidrotexnik inshootlar bunyod etilgani fikrimizning dalilidir. Mana shunday bandargoh, suv taqsimlagich, ko'priklarning ba'zi qoldiqlarini bugungi kunda ham uchratishimiz mumkin. Jizzax viloyatidagi Xonbandi to'g'oni shular sirasiga kiradi.

Xonbandi to'g'oni-Ozbekistonda qadimiy davrdan bizning davrimizgacha saqlanib kelgan tog'ondir. U Jizzax viloyati Forish tumanidagi Band shaharchasi yaqinida joylashgan. Tadqiqotchi olimlarning fikricha, togon haqida yozma manbalar mavjud

⁵ Masalskiy V.I – Turkistanskiy kray. M.: "Shkola" 1913 g, 28-c.

⁶ Rashidov Sh- Osiyo va Afrika mamlakatlari vakillarining Toshkentda o'tkazilgan konferensiyasidagi nutqi. 1974 yil. 4-bet.



emas. Shunday bo'lsada, taxminiy sanasi turli xl keltiriladi-X asr, XV1 asr, 1582 yil. 1973 yildan buyon respublika miqyosidagi yodgorlik sifatida davlat muhofazasida saqlanadi.

Forish tuman markazidan 12-15 km shimolda Pasttog' darasi ichiga qurilgan suv ombori (10 asr) Xonbandi Nurota tog'idan oqib chiqadigan Osmonsoy va Ilonchisoyning sel suvlarini jamg'arib, yozda ekinlarni sug'orish uchun barpo etilgan. Xonbandi to'g'oni granit toshlar va suvga chidamli maxsus qorishmalardan ishlangan. To'g'onning uzunligi ustki qismida 51,57 metr, asosida 24,35 metr balandligi 15,25 metr. Xonbandining uzunligi 1,5 km, eni to'g'on oldida 52 metr, dara og'zida 200 metrga va suv sig'imi esa bir million 600 ming metr kubga teng bo'lgan. Xonbandi tufayli Qizilqumning Mirzacho'l bilan tutashgan chegarasida taxminan 1,5 ming ga yer maydoni o'zlashtirilib, suv omboridan 6 km shimolda rabot qad ko'targan, uning xarobalari Kaltepa deb yuritiladi. Kaltepada olib borilgan arxeologik tekshirishlar bu kichik vohaning 10 asrda obod etilib, 12 asrga qadar hayot davom etganini aniqlab berdi.

Suvni chiqarish uchun Xonbandi inshootini g'arbiy chekkasida 9 ta quvur o'rnatilgan. Ular oqib chiqadigan suvning dinamik ta'siriga qarshi konussimon qilib ishlangan.

Xonbandi to'g'onining matematik o'lchovlariga qaraganda, uni bino qilgan 10 asr irrigatorlari mazkur inshootni qurishda to'g'on oldiga to'planadigan 16 metr chuqurlikdagi suvning vertikal bosim kuchini hamda inshootni ag'daruvchi gorizantal kuchni aniq hisoblab chiqqanlar. Shuning uchun ham Xonbandi to'g'onining asosi yuqori qismiga nisbatan to'rt barobar qalin qilib ishlangan. To'g'on maxsus loyiha asosida bino qilingan. Bugungi kunda sun'iy suv omborining jomidan foydalanilmaydi, zero, eng tepa qismiga qadar loyqa chiqindilar bilan to'lib, jarlikning tekis qismiga aylangan. Lekin bu erga bahorda kelsangiz, yuqoridan tushuvshi suv aql bovar qilmas shovqin hosil qiladi, ammo bu shovqindan quloqlaringizni bekitishni istamaysiz - bu choqqidan kelayotgan qudratli musiqani uzoq tinglash mumkin. Suvning hayotiy simponiyasi hayotga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi: sachrayotgan mayda suv tomchilari yuz, qo'l va kiyimlarga sachrab, sobutmaydi, aksincha, tabiiy zavq bag'ishlaydi. Qo'llarni yonga, yuzingizni billur suvga



tutsangiz, muammo va xavotirlanish, qalbingizdagi og'riq va bezovtaliklarni tabora unuta boshlaysiz.

“Qiz uchgon qoyasi”. Forish xalqi orasida tumandagi joylar, qishloqlar, g'orlar, daralar, hamda, qoyatoshlar to'g'risida turli-tuman ertaklar, rivoyatlar mavjud bo'lib ular haqida o'z qishloqlariga kelib qolganlarga to'lqinlanib gapirib berishadi. Tarix shundan dalolat beradiki, ertaklar haqiqatga yetaklaydi, rivoyatlarda esa qisman b'olsada haqiqat mavjud. Ana shunday rivoyatlardan biri Forish tumani, Kattabog'don qishlog'ining yuqori qismida joylashgan: “Oq qoya”, “Qatrang'i”, “Qiz uchgon qoyasi” haqidagi rivoyatlardir. Shu qishloqdan chiqqan yozuvchi va shoir, ko'plab kitoblarning avtori Mamadali Maxmudov o'zining “Bu tog'lar - ulug' tog'lar” nomli kitobida shunday satrlarni yozib qoldirgan, “Manguga zanjirlangan bu tog'da Oqqoyadan ulug' qoya yo'q. Uning uchida shohga kiydirilgan tojdek bir tup qatrang'i qad kergan”. Oqqoyaning qarshisida esa viqor to'kib turgan, “Qiz uchgon” uzoq-uzoqlardan ko'zga tashlanadi.

Jizzax-Forish avtomagistral yo'lidan, Forishga boraverishda Osmonsoy qishlog'idan chapga qayrilgach, yo'lda “Osmonsoy, Qozi to'pi, Sayyod” qishloqlaridan o'tib “Katta Bog'don” qishlog'iga duch kelasiz. “Bog'donsoy” oralab yuqoriga, tog' tamon ko'tarilib borar ekansiz, qishloq yo'li uch ulkan daraga-Sharilloq, Tutlik va Savatlikka - ajralganligini. Uch daraga ajraluvchi yo'l boshida viqorli tik qoya borligiga guvox bo'lamiz. Bog'donliklar bu muqaddas qoyani “Qiz uchgon” deya atashadilar. Qoyatosh chinakam tabiat mo'jizasi. U daralarga kiraverishda darvoza misol qad kerib turibdi. Qoyaning tagida qaynar buloq bor, sarotonda suvidan ichsangiz rohat olasiz. Qoyaning old tamoni tik, uning yuqori cho'qqisiga etay deganingizda katta g'orga duch kelasiz, g'or og'zidan pastga qarasangiz oq va qizil rang oqib tushayotganday g'oyo. Qoyatosh haqida tuman teritoriyasida tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarimiz bilan suhbatlashganimizda, uning qadimiyligi hatto 3000 yillik tarixga ega ekanligini so'zlaganligiga guvoh bo'lganmiz. Boshqalari esa, Qoyatosh tariximizni XV asriga tegishli ekanligini, Buxoro xoni Abdullaxon - 11 davriga oid tarixda bunday ma'lumotlar mavjudligi “haqidagi fikrlarini aytganlar. Katta Bog'don qishlog'ida bolaligimiz o'tganligi sabablimi, tez-tez qisloq



bolalari qoyatosh tagida to'planib, unga soatlab tikilib turardik, xalq orasida yurgan gaplarni eslashdik, ammo qorong'ida bu erdan o'tishga ko'pchiligimiz hayiqardik.

Qoya bilan bog'liq Bog'donliklar orasida bir qancha afsona va rivoyatlar mavjud bo'lib, biz ularning ayrimlarini e'tiboringizga havola qilamiz:

Birinchi rivoyat: Rivoyat qilishlaricha qachonlardir shu qoyatoshlar orasida kattagina qishloq bo'lgan ekan. Bu qishloqning zilol suvlari, bog'u-roq'lari, ko'm-ko'k adirlari o'ziga aro berib turar ekan. Odamlari esa tinch va osuda yashar ekanlar. Kunardan bir kun qishloqqa yovuz bosqinchilar to'dasi bostirib kelibdi. Qishloqdagi yoshu-qari, barcha-barchani qirib tashlabdilar. Olisroqda bo'lgan ikki sevishgan yigit va qiz dushman qo'liga tushmaslik uchun toqqa qarab qochibdilar. Dushman ularni izma-iz quva boshlabdilar. Qiz bilan yigit baland bir qoy ustiga chiqishib qarashsalar, bosqinchilar ham qoyaga chiqayotganligini ko'rishibdi. Dushman qo'liga tiriklayin tushishdan, xo'rlik va azoblarga duchor bo'lishdan, qullikdan, qiz va yigit o'zlari uchun o'limni afzal bilishadi. Qiz o'zini qoyatoshdan pastga otibdi, uning orqasidan uigit ham o'zini tashlabdi. Qoyatoshdan qiz o'zini birinchi bo'lib tashlaganligi uchun, keyinchalik odamlar uni "Qiz uchgon qoya" deb ataganlar. Bu nom hozir ham uz nomini saqlab kelmoqda. Agar qoyatoshga sinchiklab e'tibor bersak, qizil va oq rang bo'yoqlarni ko'ramizki, qishloq odamlarining talqinicha bu go'yo "qiz va yigitning qoni emish".

Ikkinchi rivoyat: "Qiz uchgon qoyatoshi" haqida, shu qishloqda yashagan, 1917 tug'ilgan, Maxmudova Horjon momo shunday hikoya qilib bergan edi. "Oq buloq ota" nomli joyda, "oq so'fi", degan bir odam yashagan ekan. Oq so'fini odamlar ortasida obro'si juda ham baland bo'lib, kimki, qurbonlik yoki xudoyi qilmoqchi bo'lsa u kishini roziligini olgandan so'ngina bu ishni amalga oshira olarkan. Bir kuni, qo'shni Yomchi qishlog'ida janoza-fotiha bo'lib qolibdi. O'sha erga bormoqchi bo'lib, qo'shnilardan biridan ulovini (ot yoki eshakni) so'ragan emish, ammo qo'shni o'z ulovini berib turmagan. Sunda oq so'fi narozi bo'lgan va fotihaga piyoda jo'nab ketgan. Fotihada biror soatlar chamasi o'tirgach, odamlardan uzr so'ragan va bizning qishloqda yomon bir hodisa sodir bo'ldi, hozir bormasam bo'lmaydi deb jo'nab qolgan. Oq so'fi qishloqqa qaytib kelgach, Oq buloq yaqinidagi 70-90 metrlar balahdlikdagi qoyatoshga, hali ulovini so'raganda bermagan



qo'shnisini, 7-10 yoshlardagi qizi va o'g'li, qoyaga orqa tamondan teshikdan otishgan, qaysi yo'ldan kelganligini unutib qo'yishgan, adashib qollanligidan qo'rqishib, gangib qolganlar. Shu paytda bir kalxat uchib kelib qizni cho'qiy boshlagan, gangib qolgan qiz o'zini pastga tashlagan, bola ham uning orqasidan qoyadan tushib ketgan. Ikkalasini qoni bir joydan oqib tushgan, mahalliy xalq qoyatoshdagi oq va qizil ranglarni, o'sha qiz va bolani qoni deb gapirishadi.

Uchinchi rivoyat: Shu qishloqda yashagan, 1914 tug'ilgan Xo'jabekov Nurum boboning hikoyasi. "Qadim-qadim zamonlarda, Bog'don qishlog'ida go'zallikda tengi yo'q bir qiz va qatrang'i qoyasiday mard, mag'rur bir yigit yashashgan ekan. Ular bir-birlarini sevishar, yaxshi ko'rishar ekan, ular "Qoyatosh ustida" o'tirib bir-birlariga, har doim birga bo'lishga ahdu-paymon qilishibgan ekanlar. Bir kuni qiz ota-onasining, uni qishloqdagi boy bir odamga bermoqchi ekanligini eshitib qoladi uydagilarga qilingan yalinib yolvorishlar foyda bermaydi. Shundan so'ng, qiz bilan yigit usha qoyatosh ustida uchrashadilar, qizdan bu xabarni eshitgan yigit, sevgilisidan ajralishni oylab, juda ham og'ir ahvolda qoladi, mard, tanti, qo'rqmas yigit dovdirab qoladi, nima qilishini bilmay, uzoq-uzoqlarga tikilib qizga mayus ko'zlari bilan boqadi. Shunda sevgisiga sodiq qiz yigitga qarab shunday deydi: "Bu hayotda sizsiz qolar ekanman, men uchun hayotni qizig'i yo'q, deya ko'zida yosh bilan yigitga so'ngi bor mehr bilan qaraydi" so'ngra qoyadan o'zini pastga tashlaydi. Shunda yigit bexosdan, "Qiz uchdi" deb baqirib yuboradi va u ham o'zini pastga otadi. Yigitning ovozi tog'lar orasida gumbirlab ketadi. Bu voqeadan keyin, odamlar choqqining nomini "Qiz uchgon" deb atagan ekanlar. Quyosh qaytib, kun botayotgan paytda Qoyatosh oldiga borib qolsangiz, go'yo ajib bir manzarani guvohi bo'lasiz, atrofdagi dov-daraxtlar barglari mayin shivirlab, "Qiz uchgon", "Qiz uchgon" deyayotganday bo'ladi.

Ushbu rivoyatlarni eshitib, o'rganar ekanmiz, ularning qaysi biri haqiqatga yaqin ekanligini ko'hna tarix biladi, deya xayolga tolamiz, bu kabi xalqimiz o'rtasida tarqalgan rivoyat, ertak va afsonalar, aslida xalqimizning shonli tarixidan dalolatdir deb tushunamiz. Tarix dalolat beradiki, ertaklar haqiqatga etaklaydi yoki undan so'zlaydi. Rivoyatlarda qisman bo'lsada haqiqat mavjud. Qoyatoshning shundaygina yonida bolalar oromgohi



joyashgan. Oromgohga kelgan bolalar , ularning ota-onalari,”Qiz uchgon qoyatoshiga” soatlab tikilib turganligini guvohi bo’lganmiz.

Darhaqiqat, ne-ne voqea-hodisalarga sirdosh bu mag’rur qoya osuda bolalikning magulikka daxldor timsoli yanglig’ ulug’vorligini hamon saqlab keladi. Bu yerga kelib-ketuvchilarning son-sonog’i yo’q. Ayniqsa bahor va yoz paytlari bu tarixiy yodgorlik, tarixga qiziquvchilar va tabiat shaydolari, tog’ havosini sevuvchilar bilan doimo gavjum bo’ladi.

O’zbekiston xalqining sevimli shoiri Azim Suyun o’zining dil tug’yonlarini quyidagi satrlarda:” Oltmish besh yoshda edim, Katta Bog’don tog’ qishlogida bo’ldim. Ozimning tan qudratimni sinab ko’rmoqchi va “Qiz Uchgon” qoyaga - ming metrda balandroq choqqiga chiqmoqchi bo’ldim. Chiqdim! Choqqining ustida ozroq boshim aylandi. O’zimdan -o’zimga ulkan ishonch paydo bo’ldi” –deb bayon qilgan edi.

Foydalanil adabiyotlar:

1. Mirkomilov.B - “Forish tumani tarixidan” Toshkent 2021 167 - bet
2. Masalskiy V.I – Turkistanskiy kray. M:,”Shkola” 1913 g, 28-c.
3. Rashidov Sh- Osiyo va Afrika mamlakatlari vakillarining Toshkentda o’tkazilgan konferensiyasidagi nutqi. 1974 yil. 4-bet.
4. Rol vodnoy melioratsii v razbitim zemledeliya O’zbekistana. O’zb. AKSI. T:,”O’zbekiston”, 1992-god, 48 str.